

## WORLD EXPERIENCE IN TEACHING CHILDREN WITH DISABILITIES

**N.Sh. Umarova-TSPU, p.f.d, associate professor**

**F. S. Isakulov-student of TSPU**

### **ANNOTATION**

The international community has developed a number of international legal norms that regulate relations in education, taking into account the great place of education in the development of society and Human Development. The Universal Declaration of human rights, adopted by the UN General Assembly in December 1948, recognized the right of each person to education and confirmed the principles of non-discrimination in this regard. In the field of education, it was emphasized that any discrimination is considered a violation of human rights.

Rivojlanish sohasidagi maqsadlardan biri Yer yuzida har bir o‘g‘il-qizni umumiy boshlang‘ich ta’lim bilan to‘liq ta’minlashga erishishdan iboratdir. Bu maqsadlar qamrovi bo‘yicha yagona umumiy vazifa hisoblanadi. Unda hukumatlar, xalqaro muassasalar va donorlarga barcha bolalar, birinchi navbatda ayni paytda ta’lim sohasidan chetga qolgan bolalarning o‘qishi uchun shart-sharoit yaratishga da’vat qilingan.<sup>1</sup>

XX asrning 90-yillarida butun dunyo miqyosida jamiyatning nogironlarga bo‘lgan munosabatlari va ularning ta’lim olishiga qaratilgan bir qancha konseptual tadbirlar o‘tkazila boshlandi. Masalan, 1994 yil 7-10 iyun kunlarida Ispaniyaning Salamanka shahrida alohida yordamga muhtoj shaxslarning ta’lim olishiga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda 92 ta mamlakat va 25 ta xalqaro tashkilotdan delegatsiyalar qatnashdi. Ana shu konferensiyada qabul qilingan Deklaratsiyada shunday deyiladi: «...alohida ta’limga muhtoj bolalar, yoshlar va kattalarni ta’lim bilan ta’minlashni zaruriy va keyinga qoldirib bo‘lmas masala deb tan olamiz...»<sup>2</sup>. Xuddi shu anjumanda ilk marotaba inklyuziv

<sup>1</sup>Ўзбекистонда таълим: талаб ва таклиф мутаносиблиги / Инсон тараққиёти тўғрисидаги маъзуза. UNDP Uzbekistan 2007/2008. – Т.: «Мега басим», 2008. – Б. 117.

<sup>2</sup>Саламанская декларация: о принципах, политике и практической деятельности в сфере

maktablarni tuzish haqidagi masala ko‘tarilgan va buning dolzarbligi asoslangan.

70-yillarda Yevropada juda keng miqyosda alohida yordamga muhtoj shaxslarni (imkoniyati cheklanishining qay darajadaligidan qat’iy nazar) boshqalar bilan teng ravishda o‘qitish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Natijada, maxsus maktablar va internatlar yopilib, rivojlanishda ortda qolgan bolalar «umumiyoqim» larga o‘tkazildi.

Gollandiyada bolalarning ta’lim olishdagi tenglik tamoyili qat’iy nazorat qilib boriladi. SPB uchun maxsus «Mitil-maktablar», aqliy rivojlanishdan ortda qolganlar uchun «Tiltil-maktablar» mavjud. Maxsus maktablarda gollandiyalik bolalar bir necha yil ta’lim olishadi, shuningdek bolalarning ahvoli yaxshilangudek bo‘lsa, ular umumta’lim maktablariga o‘tkaziladi. Ammo alohida yordamga muhtoj bolalarning bir qismi oddiy maktablarga borishadi, bu holatda ularning o‘qituvchilariga Mitil va Tiltil muktab o‘qituvchilari tomonidan masalahtlar beriladi. Bu holatda ota-onasining qaysi maktabga borishini tanlash huquqiga ega.

Germaniyada aqliy jihatdan ortda qolgan bolalar boshqalardan ajratilmaydi. Aqliy jihatdan yengil darajada ortda qolgan bolalar umumta’lim maktablarida o‘qishadi. Aqliy jihatdan o‘rtacha va chuqur darajada ortda qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud bo‘lib, Yerkelens shahrida I.G. Pestalossi nomidagi va Oberbrux shahridagi maktablarni, bunga misol qilib keltirish mumkin.

Bolalarning ijtimoiylashuvi uchun eng yaxshi vositalardan biri bolani o‘z tengqurlaridan ajratmaslikdir. Germaniyada tashkil etilgan maxsus maktablar sog‘lom bolalar uchun qurilgan maktablar bilan yonma-yon qurilgan bo‘lib, ularning sport zallarida, ustaxonalarida mashg‘ulotlar birgalikda olib boriladi va shu tariqa imkoniyati cheklangan bolalar o‘z tengqurlari bilan muloqatda bo‘lishadi. Bundan tashqari bunday maktablarda o‘tkaziladigan tadbirlar birgalikda tashkil qilinadi, bunda imkoniyati cheklangan bolalar o‘z tenqurlari qatori nutqining shakllanishi, o‘z his-hayajonlarini boshqarishi, xulq-atvorlarni o‘zlashtirishi imkon vujudga keladi. Bu ijtimoiy siyosat natijasida imkoniyati cheklangan bolalarning

ijtimoiylashuvida yanada samaraliroq natijaga erishiladi.

Finlandiya qonuniga muvofiq har bir 7 dan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar maktabga borishi shart. Aqliy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar maxsus maktablarda yoki umumta’lim maktablarining maxsus dastur asosida o‘qitiladigan sinflarda, yoinki internat-shifoxonalarda ta’lim olishadi. Shuningdek, ular biror-bir kasb yuzasidan mutaxassislik darajasini olish uchun kasbiy ta’lim olish huquqiga ega.

Imkoniyati cheklangan insonlar mehnat qilish, ta’lim olish, xrodiq chiqarish huquqiga egadirlar. Ular madaniyatga va sportga kirishish uchun keng tarzda imkoniyatga ega bo‘lishlari shart: sport seksiyalarida shug‘ullanishlari, badiiy faoliyat to‘garaklariga qatnashishlari mumkin. 1993 yil 20 dekabrda BMTning Bosh Assambleysi tomonidan qabul qilingan, nogironlarning imkoniyatlarini tengligini ta’minlaydigan Standart Qoidalarda, madaniyat va sport sohasiga doir haq-huquqlari alohida ko‘rsatilgan. Madaniyatga daxldor bo‘lgan 10-qoidada<sup>3</sup> shunday deyiladi: «Davlat nogironlarning madaniy hayotga kirishishni va madaniy hayotda qatnashishi imkoniyatlarini tengilik asosida amalga oshishini ta’minlaydi», «Davlat nogironlarning ... yaratuvchanlik, badiiy va aqliy salohiyati imkoniyatlaridan nafaqat o‘zlarining muvaffaqiyati, balki jamiyat taraqqiyotini boyitish uchun ham foydalanishini ta’minlashaydi. Bunday faoliyatga teatr, adabiyot, raqs, kuy, rassomchilik va badiiy adabiyotlarni misol qilishimiz mumkin».

---

<sup>3</sup>Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов. Правило 10. Культура. – Б.м.: ООН, 1994. – С.55-56.